



Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI

Ilhomjon Muhitdinov Ihtiyorjon o'g'li¹ Turg'unova Fazilatxon Rahmonali qizi²

Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasida o'qituvchisi¹

Farg'ona davlat universiteti geografiya 1-kurs talabasi²

INFO:

Qabul qilindi: 27.03.2022

Ko'rib chiqildi: 28.03.2022

Chop etildi: 31.03.2022

Kalit so'zlar: *Ko'llar, suv ombor, morena, suv rejimi, geneziya, gidrogen ko'l, tektonik ko'l, gidro elektr stansiyalar, chorbog', kosonsoy, qayroqqum*

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonning ko'llari va suv omborlariga tasnif berilgan. Suv omborlarning aholi va qishloq xo'jaligi ekinlari, daryolarning suv rejimini tartibga solib turuvchi muhim inshoot ekanligi, suv omborlar ro'yhati, ko'llarning kelib chiqishiga ko'ra guruhlari haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Kalit so'zlar, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborad.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

Annotation : The article classifies the lakes and reservoirs of Uzbekistan. The fact that the reservoirs are an important structure for regulating the water regime of rivers, population and agricultural crops, The list of reservoirs is briefly described by groups of lakes according to their origin. It consists of keywords, main part, conclusion and list of references.

Keywords; Lakes, reservoir, moraine, water regime, genesis, hydrogen lake, tectonic lake, hydroelectric power stations, park, kosonsoy, kayrakkum.

Asosiy qism: Quruqlikdagi tabiiy chuqurliklarni to'ldiradigan va yuzasi gorizantal bo'lgan suv yuzalariga ko'l deyiladi. Ko'llar okean va dengizlardan ma'lum bir darajada uzoqda bo'lishi, suv havzasi va uni tashkil etgan barcha qismlari deyarli bir xil sathda bo'lishi, havzasining chuqurligi

to'liqin hosil qila olish darajasiga va qirg'oqlarini yuva oladigan kuchga ega bo'lishi lozim, o'rtacha suv sathining yuzasi maydoni 0,01 km.kv dan katta bo'lishi kerak. Ko'llar paydo bo'lish sabablari, joylashish o'rni, uning shakli, o'lchami, gidrologik rejimi va yana boshqa xususiyatlari bilan bir biridan farq qiladi. O'zbekiston ko'llari notekis taqsimlangan. O'zbekiston hududidagi ko'llar soni (5360ta ko'l) 100% desak, shuning 56.5% uning tekislik qismida, 43.5% esa tog'li qismida joylashgan. Lekin suv yuzasi maydonning kattaligi jihatdan tekislikdagi ko'llar oldinda bo'lib, 67% ni tashkil etadi. Tekislikdagi ko'llar asosan daryo vodiylarining qayirlarida vujudga kelgan. Tog'dagi ko'llar esa asosan daryolarning qulamalar va morenalar orqali berkilib qolishi natijasida paydo bo'lgan.

Ko'llarning paydo bo'lishi ya'ni geneziyasi yerning ichki va tashqi kuchlari hamda geografik o'rni reliefi geologik tuzilishi va boshqa omillar bilan bog'liq. Ko'llarning geneziyasi bo'yicha tasnifni 1937 yilda M.A.Pervuxin taklif etgan. 1960 yilda Bogoslavskiy tomonidan takomillashtirilgan. AQSHlik gidrolog olim J.E.Xatchinson tomonidan 1957 yilda taklif etilgan tasnifi yuqoridagilardan mukamalligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston ko'llarining geneziya bo'yicha tasniflasak quyidagi guruhlariga bo'linadi.

1. Hidrogen ko'llarning kosalari daryo suvlari ,yer osti suvlari tasiri natijasida vujudga keladi. bunday ko'llarga misol qilib (Nixnat, Karataka, Aydarko'l, Dengizko'l, Qoraqir va boshqalar).

2. O'zbekistondagi eng katta tektonik ko'l bu :Orol hisoblanadi.

3. Qulama ko'llar tog' ko'chkilari zilzila va siljishlar natijasida hosil bo'ladi (Iskandarko'l ,Qurbonko'l ,Shovurko'l toshning qulab tushishi natijasida vujudga kelgan).

4. Meteorid ko'l bunga Surxondaryo viloyatidagi Qonbeshbuloq ko'lini misol qilib ko'rsatish mumkin.

5. Bundan tashqari antropogen ko'llar suv omborlarni ham misol qilishimiz mumkin. Suv omborlar asosan inson faoliyatida, qishloq xo'jaligida va daryolarning suv rejimini tartibga solib turish maqsadida barpo etiladi. Bunyod etilgan suv omborlarning yoniga Hidro Elektr Stansiyalarini qurish inson faoliyati va sanoat uchun ham muhimdir.

Ko'llarning joylashishi o'rniga qarab 2 turga bo'lib chiqamiz. Ya'ni to'ldiriluvchi suv omborlar havzalarining maydonlari daryo yoki ko'llardan uzoqda joylashgan bo'ladi. Masalan (Talimarjon suv ombori Qarshi magistrali kanali yordamida Amudaryo suvi hisobiga to'ldiriladi, Uchqizil suv ombori zang kanali yordamida Surxondaryo suvi hisobiga ,Farg'ona vodiysidagi Karkidon, Buhoro viloyatidagi Quyimozor, To'dako'l) kabi suv omborlar misol bo'ladi.

Gidrogen suv omborlar bunday inshootlar asosan daryo yoki soylar suvini oqimini bevosita baland to'g'onlar bilan to'sish orqali barpo etiladi (Chorbog', Kosonsoy, Qayroqqum, Chordara, Tuyabo'g'iz, Pachakamar, Sardoba) kabi suv omborlar misol bo'la oladi.

Ko'l va suv omborlaridan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan qishloq xo'jaligini suv bilan taminlash, aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holatda, oqsilga boy bo'lgan baliq mahsulotlarini yetishtirish, baliqchilikni rivojlantirishga va elektr tokini hosil qilishda foydalanish mumkin. Elektr to'kin ko'l va suv omborlardan olish .Buning uchun ko'l va suv omborlar to'g'onlari yoniga gidroelektrstansiyalarni (GES) qurish lozim. GESlarda elektr toki suvda hosil bo'lgan bosim orqali olinadi. Bosimning ortib borishi suvning hajmi va massasiga bog'liq. To'g'onlarning bosimga chidamli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak GES va suv ombori texnik taraqqiyot zaruratini bildiradi. Ulardan mohirona foydalanish xalq xo'jaligi masalalarini xalq etishi

mumkin. Respublikamizda hozirgi kunda 41ta GES mavjud bo'lib ulardan 24tasi harakatdagi GESlar hisoblanadi.

Xulosa

Hozirgi kunga kelib, o'lkamizda ko'plab ko'l va suv omborlar mavjud ekanligi, so'ngi yillarda sun'iy suv havzalari, suv omborlar qurilganligi. Ko'llarning kelib chiqishi, hamda M.A. Pervixin, B.B. Bogoslovskiy va J. E. Xatchinson kabi olimlarning tasniflari ham ko'llarni o'rganishga katta qiziqish uyg'otadi.

Asosan suv omborlarning qurishdan maqsad daryo, soylarning kuz, qish, bahor oylarida atmosfera yog'inlari natijasida vujudga kelgan suvlarni to'plab yoz oylarida taqsimlash va rejimini tartibga solishdan iborat.

Bunda antropogen omillar muhim va ahamiyati katta. Suv omborlardagi suvlarning bir meorda taqsimlanishi qishloq xo'jaligi ekinlari va aholi uchun xam foydali ekanligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xikmatov Fazliddin, Aytbayev Dauletbay Perdebayevich, Adenbayev Bahtiyor Yembergenovich, Pirnazarov Ravshan Topvoldiyevich "GIDROLOGIYAGA KIRISH" Toshkent-2017.
2. G'.X. Yunusov, R.R. Ziyayev. "Umumiy gidrologiya va iqlimshunoslik., <<Barkamol fayz media>> nashriyoti, 2018
3. Zarifjon o'g'li M. Z., Ihtiyorjon o'g'li M. I. FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI // PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 49-52.
4. Zarifjon o'g'li, Maxammadov Zuhridin, and Muhitdinov Ilhomjon Ihtiyorjon o'g'li. "FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI." *PEDAGOGS jurnali* 2.1 (2022): 49-52.
5. Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov FARG'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI // Scientific progress. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/farg-ona-vodiysining-janubiy-qismi-gidrografiya> (дата обращения: 12.03.2022).
6. Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov SO'X DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI // Academic research in educational sciences. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/so-x-daryosi-oqimining-shakllanishida-gidrometeorologik-omillarning-rol> (дата обращения: 12.03.2022).
7. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION // Scientific progress. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prospects-of-development-of-agricultural-tourism-in-fergana-region> (дата обращения: 12.03.2022).
8. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION // Scientific progress. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prospects-of-development-of-ecotourism-in-the-protected-natural-areas-of-fergana-region> (дата обращения: 12.03.2022).